

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2023-YIL 13-APREL PF-51
SONLI FARMONI TO'G'RISIDA**

Xolmatova Sug'diyona Sharofiddin Qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

1-bosqich talabasi. Rishton tumani

DXM amaliyotchisi

Annotatsiya: maqolaning qisqacha mazmuni shundan iboratki, Prizidentimizning yangidan-yangi qator Farmonlari, Qarorlari yoshlar uchun, Xalq uchun ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri 2023- yildagi PF 51-sonli Farmonning mazmun mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *subsidiya, kafil, konsepsiya,*

Albatta hamma Qarorlar, Yangi Farmonlarni ko'rib chiqar ekanmiz, barchasi aynan xalqimizning manfaati uchunligi yaqqol ayondir. Bulardan biri Subsiydiya asosida beriladigan uy- joylardir. Xo'sh subsidiya o'zi nima?

Subsiydiya — ipoteka kreditlari asosida kvartira sotib olish uchun boshlang'ich badal va kredit foizining bir qismini yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruktsiya qilish uchun kredit foizining bir qismini qoplash maqsadida Davlat byudjetidan fuqaro uchun bankda uning nomiga ochilgan tegishli hisobvaraqlqa o'tkazilgan mablag'dir.

• Ariza beruvchi — ipoteka kreditlari bo'yicha boshlang'ich badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya olish maqsadida ariza bilan murojaat qiluvchi 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

• Daromadi yuqori bo'limgan fuqaro yoki oila — qonunchilik hujjatlariga muvofiq aniqlanishi mumkin bo'lgan o'rtacha oylik daromadlar miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,7 baravaridan 8 baravarigacha va Toshkent shahrida belgilangan MHTEKMning 2,7 baravaridan 9,2 baravarigacha bo'lgan oilalar. Ariza beruvchi tomonidan ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya olish uchun ariza yil davomida topshirilishi mumkin. Mas'ul tashkilotlar tomonidan ariza beruvchini ijtimoiy mezonlar bo'yicha baholash tartibi Komissiya tomonidan baholash natijalarini ko'rib chiqish tartibi Ariza beruvchini quyidagi ijtimoiy mezonlar bo'yicha baholash (aniqlash) subsidiya.itm.uz dasturiy ta'minot tizimida avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi.

Mazkur Farmonga muvofiq, 2024-yil 31-dekabrga qadar:

Jamg'arma tomonidan xususiy pudrat tashkilotlariga Toshkent shahrida-9 va undan yuqori, boshqa shaharlarda-7 va undan yuqori, qishloq joylarda-5 va undan yuqori qavatli uylar qurish uchun ajratilgan tijorat banklarining milliy valyutadagi

kreditlari bo'yicha 24-oydan ortiq bo'lмаган muddatga kafillik va kompensatsiya taqdim etiladi.

Kompensatsiya kredit summasidan qat'i nazar har bir ko'p kvartirali uy-joy uchun kreditning 5 mlrd.so'mdan ortiq bo'lмаган qismi bo'yicha to'ланади.

Kafillik kredit summasidan qat'i nazar har bir ko'p kvartirali uy-joy uy joy uchun 2,5 mlrd. so'mdan oshmagan miqdorda taqdim etiladi.

Kafillik va kompentsatsiya berish uchun maydoni 70 kv.m.dan oshmagan kvartiralar soni qurilayotgan uy-joydagi jami kvartiralar sonining 70% tashkil etishi lozim.

Bundan ko'pchilik uy- joyga muhtoj bo'lgan oilalar foydalana oldi desam mubolag'a bo'lmaydi. Ayrimlarning arizasi rad etilganligi biroz achinarli holat lekin haqiqatan ham uy joyga muhtoj oilalarga berilgani quvonarli holat edi. Albatta arizalar muddatidan oldin to'lib qoldi, ya'nikim, limit tugadi bu esa o'z navbatida ya'na shunday farmon chiqishiga umid qilayotgan ba'zi oilalarni ko'nglini biroz cho'ktirdi. Negaki, mablag' yo'q bo'lган bir sharoitda bunday Farmonni chiqishi xalqimizni ko'ziga quvonch qalbiga surur olib kira olgan edida. Buning ustiga bu uy- joylar subsidiya asosida va 20 yil muddatga berilishi quvonarli xolat edi. Chunki 20 yilni ichida shu oilalar o'zini tiklab olishi, va kreditga olingan uy uchun ishlashi zarurligini yodga solib turardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi
2. Prezidentining 09.12.2021-yildagi PF-33-son Farmoni
3. Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom
4. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-fevraldag'i 56-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.05.2020-yildagi PQ-4701-son